


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



IQTISODIYOT FAKULTETI  
“YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR BIZNES” KAFEDRASI

IKKINCHI OLIY TA'LIMGA KIRISH IMTIHON

DASTURI VA BAHOLASH MEZONLARI

“Mutaxassislik” fani

60410600-Bank ishi

Namangan – 2025 yil

**Namangan davlat universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullagan. 2025-yil 26-iyundagi 13-sonli majlis bayoni.**

**Tuzuvchilar:**

**B.Urinov**

Namangan davlat universteti Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi mudiri, PhD

**K.Sirojiddinov**

Namangan davlat universteti Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

**Taqrizchilar:**

**O.Aripov**

Namangan muhandislik-qurilish instituti Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor.

**D.Baymirzayev**

Namangan davlat universteti Menejment kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent.

## KIRISH

Zamonaviy banklar uzoq muddatli ijtimoiy rivojlanishning natijasi bo'lib, zamonaviy tsivilizatsiyaning muhim ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning amal qilishi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarining uzluktsizligini ta'minlash imkonini beradi. SHu sababli, bank tizimini alohida fan sifatida o'rganish zaruriyatini yuzaga keldi. Zero dunyoning barcha mamlakatlarida iqtisodiyotning samarali o'sishi banklarning moliyaviy barqarorligini oshishi hamda tijorat banklari tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ko'pdan bog'liq bo'lgani uchun fanning oliy malakali kadrlarni tayyorlashda o'rni beqiyosdir. Fanda bank, bank tizimi va bank ishi kategoriyalarining paydo bo'lishi va ularning evolyutsiyasi, pul nazariyalarining mohiyati, asoschilarini va namoyondalarini, pul aylanmasi tushunchasining mohiyati, pul muomalasi va uni tashkil qilish asoslari, pul tizimining mazmuni va uni tashkil qilish asoslari, inflyatsiya va uning yuzaga kelish sabablari, kredit tushunchasi va uning zarurligi, kredit munosabatlari yuzaga kelishining sabablari va shart-sharoitlari, banklarning dastlabki operatsiyalari, Markaziy banklarning yuzaga kelish sabablari, maqsadi va tashkiliy tuzilishi, tijorat banklari faoliyatining tashkiliy asoslari, tijorat banklari aktiv va passiv operatsiyalari, nobank moliya-kredit tashkilotlari va ular faoliyatining zarurligi, kredit tizimi va uning tarkibi, valyuta munosabatlari asoslari va xalqaro moliya institutlari faoliyatiga doir g'oyalari, atama va tushunchalar, nazariy qarashlar, kontseptsiya va modellar, tamoyillar, yondashuv, usul, uslub, yo'sinlar va shu kabi boshqa atributlarni tizimli va kompleks ravishda mujassamlashtiruvchi ilmiy-nazariy va metodologik asoslar uzviylik va uzluksizlik tamoyillari nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o'z aksini topgan. Bank ishi kursi iqtisod va moliya yo'nalishlar uchun eng asosiy tayanch fanlardan biri sanaladi. Fanni o'rganish jarayonida pul munosabatlarini iqtisodiy asoslash, kredit va to'lov tizimining tashkiliy va iqtisodiy asosi, bank faoliyati bo'yicha qarorlarni iqtisodiy va tashkiliy o'rganishning ilg'or shakllari va usullarini ishlab chiqish, bank faoliyatini tartibga soluvchi iqtisodiy me'yorlar hisob-kitobi, ularni baholash, tashkil qilish va takliflar ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. SHunga ko'ra, bank ishi faoliyatida ish yuritadigan mutaxassislar alohida talablar qo'yiladi. Bu fan asosiy ixtisoslik fanlarining tayanchi hisoblanib, iqtisodiyot bo'g'imining ajralmas qismi hisoblangan bank tizimi va iqtisod sohasiga kadrlar yetkazib berishda muhim rol o'ynaydi.

**Fanning qisqacha bayoni:** "Bank ishi" fani iqtisodchi, bankir, moliyachi va iqtisodiyotning boshqa bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan tayanch fanlardan biri hisoblanadi. CHunki bank tizimi iqtisodiyotning qon tomiri bo'lib, barchahisob-kitob va iqtisodiy operatsiyalar banklar orqali amalga oshiriladi. SHuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish bank kreditlari va investitsiyalari, ular ko'rsatadigan moliyaviy xizmatlar darajasiga uzviy bog'liqdir. Ushbu holatlar zamonaviy iqtisodchi mutaxassislarini tayyorlashda ushbu fanning ahamiyatini oshiradi.

"Bank ishi" fani mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda banklarning roli, banklarni tashkil etish va ularning aktiv va passiv operatsiyalari, tijorat banklarining valyuta

operatsiyalari, banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari va ularning turlari, banklarning kreditlash jarayonini tashkil etish asoslari, banklar tomonidan mijozlarning kreditga layoqatlilagini baholash usullari va ularning o'ziga xos jihatlari, tijorat banklarining zamonaviy bank xizmatlari, banklarning lizing va faktoring operatsiyalari, banklarning balansdan tashqari operatsiyalari, tijorat banklarining daromad va xarajatlari, banklarning to'lovga layoqatligi va likvidliliqi masalalarini qamrab oladi.

"Bank ishi" fani talabalarga bankni tashkil etish, uning faoliyati va moliyaviy xizmatlari bo'yicha umumiy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

**Fanning maqsad va vazifalari:** Fanning maqsadi — talabalarga banklarni tashkil qilish, ularning operatsiyalari va ko'rsatadigan moliyaviy xizmatlari, banklarninglikvidliliqi va to'lovga qobilligini ta'minlash bo'yicha nazariy bilimlar berish va amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi – tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy-huquqiy asoslari, bank aktivlarinishakllanishi, tarkibi va dinamikasi, bank passivlarinishakllanishi, tarkibi va dinamikasi, tijorat banklarining kreditlash faoliyati, banklarning investitsion faoliyati, banklarning balansdan tashqari operatsiyalari, tijorat banklarining likvidliliqi va to'lovga qobilligini ta'minlash xususidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

**Kutiladigan natijalar:** iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi sharoitida tijorat banklarni tashki qilish va uning o'ziga xos xususiyatlari, mijozlarning talabrini hisobga olgan holda yangi kredit turlarini joriy etish, banklarda bozor talablariga mos keluvchi moliyaviy xizmat turlarini tadbiq qilish, hozirgi sharoitda tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash yuzasidan talabalarning nazariy bilimlarini boyitish va amaliy ko'nikmalarini shakllashtirishdan iboratdir.

## **Asosiy qism**

“Bank ishi” fanining predmeti va mazmuni Banklar rolini oshirish bozor infrastrukturasini eng muhim elementi sifatida. Bank tizimining vazifalari. Bankning tashqi iqtisodiy faoliyati. O’zbekiston respublikasining bugungi kundagi bank tizimi va uning asosiy operatsiyalari. Bank turlari ularning funksional yunalishi bo'yicha klassifikatsiyasi (emission, tijorat, multk, ixtisoslashuvi va boshqalar) Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bank tizimi va islohotlari Bank raqami tushunchasi, bank va mijoz orasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar. Bank raqami bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar. Bankda hisob-raqamlar turlari. Bank raqamlarini ochish tartibi. Bank korrespondent raqamini ochish tartibi. Mijozining yuridik shularidagi o'zgarishlarni hujjatlashtirish tartibi. Tijorat banklarining mablag'lari va ularning tarkibiy tuzilishi. Banklarning passiv operatsiyalari. Tijorat banklari kredit potentsialini tuzilishi. Tijorat banklari kapitali va ularni tarkibi. Respublikada moliyaviy bozorning roli. Moliyaviy bozor - qurollari (instrument). Moliyaviy bozor va bunda tijorat banklarining roli.

### **Korxonalarning oborot kapitallari va bunda bank kreditining ahamiyati**

Turli multk shaklidagi korxonalar joriy mablag'larining aylanishi jarayoni. Oborot (joriy) kapital istiqbolini belgilash. Bank tushunchasi. Bank muassasa yoki tashkilot. Bank bu-korxona, yuridik shaxs sifatida, mustaqil ishlab chiqaruvchi va mahsulot sotuvchi sifatida. Bank - kredit muassasasi. Kredit tushunchasi. Hozirgi sharoitda banklar rolini oshirish bozor infrastrukturasini eng muhim elementi sifatida. Bank tizimining vazifalari. Bankning tashqi iqtisodiy faoliyati. Kichik va xususiy biznes sub'ektlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda banklarning o'rni.

### **Bank tizimi va bank turlari**

Milliy iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida tijorat banklari bozor infratuzilmasining asosiy tarmog'i sifatida. O’zbekiston Respublikasining bugungi kundagi bank tizimi va uning asosiy operatsiyalari. Bank turlari ularning funksional yunalishi bo'yicha klassifikatsiyasi (emission, tijorat, multk, ixtisoslashuvi va boshqalar) Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bank tizimi va islohotlari. O’zbekiston Respublikasi banktizimining o'ziga xos xususiyatlari. O’zbekiston Respublikasi “Banklar va banklar faoliyati” to'g'risidagi qonun. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag'larini aylanishi va kreditlashtirishda bankning funksiyalari. Tijorat banklari tizimi. Davlat tijorat banklari. Davlat aktsiyadorlik banklari. Aktsioner tijorat banklari. Xususiy banklar. Qo'shma banklar. Tijorat banklari yekapitaliga qo'yilgan talablar. O’zbekiston respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarini nazorat qilish va faoliyatini tartibga solish instrumentlari. Tijorat banklarining bugungi kundagi faoliyatini takomillashtirish muammolari.

## **O'zbekiston Respublika banklarida raqamlarni (hisob varag'larini) ochish, yopish va qayta hujjatlashtirish tartibi. Tijorat banklarining hisob-kitob operatsiyalari**

Bank raqami tushunchasi, bank va mijoz orasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar. Bank raqami bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar. Mijozning "Master fayl" tushunchasi. Bank raqamlari turlari. Bank raqamlarini ochish tartibi. Bank korrespondent raqamini ochish tartibi.

Mijozining yuridik shularidagi o'zgarishlarni hujjatlashtirish tartibi. Raqam bo'yicha operatsiyalarini to'xtatish. Raqamlarni boshqa banklarga o'tkazish. Raqamni yopish.

### **Bank resurslarini tashkil qilish, banklarning passiv operatsiyalari, banklarning kredit potentsiali**

Tijorat banklarining mablag'lari va ularning tarkibiy tuzilishi. Banklarning passiv operatsiyalari. Tijorat banklari kredit potentsialini tuzilishi. Tijorat banklari kapitali va ularni tarkibi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari kapitaliga qo'yilgan talablar. Kapitalni yetarlilik kursatgichi. Tijorat banklarining depozit mablag'lari manbai. Tijorat banklar faoliyatida depozit operatsiyalarini ahamiyati va tashkil qilish qoidalari. Depozit operatsiyalarining turlari va ularning qiyosiy tavsifi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston Tijorat banklarida omonat operatsiyalarini rivojlantirish zarurligi va asosiy yunalishlari. Tijorat banklarining nodepozit operatsiyalari va uni bank passiv operatsiyalarida tutgan o'rni. Tijorat banklarining nodepozit operatsiyalarini bank depozit operatsiyalaridan farqi Banklarning moliya bozoridan oladigan mablag'lari va ularni kupaytirish yullari. Boshqa pul mablag'lari va ularni bank passividan tutgan o'rni. Bank kredit potentsialiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni boshqarish.

### **Tijorat banklarining kredit operatsiyalari. Kredit portfeli, uni boshqarish va baholash**

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularni tarkibiy tuzilishi. Bank aktivlarning risk va daromad darajasi bo'yicha tavsifi. Banklarning kredit operatsiyalari va ularni takibiy tuzilishi. Tijorat banklari kredit portfeli, uning bahosi va boshqarilishi. Tijorat banklar tomonidan zamonaviy kreditlashtirish tizimi. Tijorat banklarining kredit siyosatini namoyon qiluvchi omillar. Kredit berish tamoyillari va ularning qisqacha tavsifi. Kreditga to'lovi. Kredit ta'minoti va uni hozirgi kundagi mavjud muammolari. Bank ssudalari, qattiq, garov va qimmatbaho qog'ozlarni ta'minlash shakllari va ko'rinishlari. Lizingli kelishuv turlari. Veksellardan, faktoringli operatsiyalardan va shu kabilardan foydalananish mexanizmi va tartibi. O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini kengaytirish muammolari va ularni hal qilish yullari. Tijorat banklarining investitsiya operatsiyalari va uni tijorat banklari daromadini oshirishdagi o'rni. Mavsumiy xarakterga ega bo'lgan turli mulkka asoslangan tarmoqlarni kreditlash Mavsumiy xarakterga ega bo'lgan ishlab

chiqarish tarmoqlari kapitalining aylanish xususiyatlari. Mavsumiy xarajatlarga beriladigan kredit turlari, ularning istiqbolini belgilash va tahlil. Qishloq xo'jaligiga kredit berish va qoplash tartibi. Qishloq xo'jaligining aloxida tarmoqlarini oborot mablag'larini tashkil qilish printsiplari va xususiyatlari. (Dexqonchilik, chorvachilik, aralash tarmoqlar va tayyorlov tarmoqlari). Mavsumiy xarakterga ega tarmoqlar bo'yicha bankning kredit siesatini aniklovchi omillar. Mavsumiy xarakterga ega tarmoqqa beriladigan kredit turlari.

Kreditni hujjatlashtirish va berish tartibi. Bank ssudalarini ta'minlash shakllari va turlari. Yirik qishloq xo'jalik korxonalarini kreditlash xususiyatlari. Fermerlar va boshqa qishloq xo'jalik tashkilotlarini kreditlash xususiyatlari. Kreditdan foydalanishda bank nazorati. Qishloq xo'jalik tashkilotlariga bank tomonidan kullaniladigan imtiyoz va jazolar.

### **Moliyaviy bozor tushunchasi, uning tuzulishi va funksiyasi**

Respublikada moliyaviy bozoring roli. Moliyaviy bozor - kurollari (instrument). Moliyaviy bozor va bunda tijorat banklarining roli. Qimmatbaho qog'ozlar bozorini tuzulishi va qatnashchilari. Banklarning qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha tijorat va investitsion operatsiyalari. Bank qimmatbaho qog'ozlarni emitenti sifatida, banklarning emission ta'sis faoliyatini tashkil etish. Qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha banklarning vositachilik operatsiyalarini mazmuni. Banklarning brokerlik operatsiyalarini amalga oshiris qonunlari.

Banklarning qimmatbaho qog'ozlar operatsiyalarini tartibga solish hujjatlarini rasmiylashtirish, jamg'arma sertifikatlari. Veksel umumiy kredit va hisob-kitob hujjati sifatida. Tijorat banklarining qimmatbaho qog'ozlar bilan passiv operatsiyalari va ularning tarkibiy tuzilishi. Tijorat banklarinin qimmatbaho qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalari va ularni turkumlanishi. Tijorat banklari investitsiya operatsiyalarining tuzilishi va ularni bank daromadini oshirishdag'i roli.

### **Tijorat banklarining halqaro valyuta va hisob-kredit operatsiyalari**

Valyuta munosabatlari va valyuta operatsiyaları. Valyuta munosabatlari tizimida banklarning o'rni, valyuta operatsiyalarini olib borishda banklarning huquqi, banklarni valyuta operatsiyalarini litsenziyalash tartibi. Halqaro valyuta qonunchiligi. O'zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligi. Tijorat banklari tomonidan valyuta operatsiyalarini o'tkazish tartibi. Valyuta bozori va valyuta birjası. Tijorat banklari tomonidan mijozlarni chet el valyutasida kreditlash tartibi.

Qo'shma korxonalar kreditlash xususiyatlari. Halqaro hisob-kitoblar va uning respublika tijorat banklari tomonidan ishlataladigan asosiy shakllari. Valyuta operatsiyalarini o'tkazish qismi bo'yicha banklarning korrespondent munosabatlari. Korxonalar tomonidan chet el valyutalarni sotish tartibi va bunda tijorat banklarining roli. Tashqi iqtisodiy faoliyatida loyihibar tahlili. Kichik va xususiy biznes sub'ektlarini chet el valyutasida kreditlashda tijorat banklarining roli va uni takomillashtirish.

## **Balansdan tashqari va ishonchli operatsiyalar**

Tijorat banklardagi turli operatsiyalar klassifikatsiyasi. Trast operatsiyasining tarkibi. Tijorat banklari trast operatsiyalarining amalga oshirish mumkin bo'lgan shaxslar kategoriysi (jismoniy va huquqiy shaxslar). Trast operatsiyasi bo'yicha tashkilotlarning o'zaro majburiyatları. Trast asosida amalga oshirilaetgan anik bir xizmat va operatsiyalarning amalga oshirish tartibi. Tijorat banklarni komission va omborli operatsiyalari, ularni turkumlashtirish. Lizingli operatsiyalar. Lizing turlari va ularni klassifikatsiyasi. Moliyaviy lizingning avzalligi. Respublikada lizingli operatsiyalarning rivojlanish yullari. Tijorat banklar tomonidan qo'shimcha xizmat turlari (Marketing, huquqiy vositachilik va boshqalar), Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalari. Tijorat banklari balansdan tashqari operatsiyalarini bank faoliyatiga ta'sirini oshirish yullari.

### **Banklar tavakkalchiligi va ularni boshqarish**

Bank operatsiyalari risklari va ularni paydo bo'lismay sabablari. Banklar tavakkalchiligining klassifikatsiyasi va ularga tavsif. Qarz oluvchilar bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik. Kredit tavakkalchiligi-kredit oluvchiga tegishli bo'lgan asosiy, foiz va ulushni tulanmay qolish tavakkalchiligining o'rni. Kredit xataridan himoyalanishni ta'minlovchi omillar. Naqd pulsiz hisob-kitoblar sohasida bank tavakkalchiligi va uning turlari. Tijorat banklari risklarini baholash va boshqarish usullari. Tijorat banklari tavakkalchiligi boshqarish vositalari. Banklar tavakkalchiligining sug'urtasi. Tijorat banklari tomonidan bank risklaridan himoyalanish uchun tashkil qilinadigan sug'urta fondlari va ularning turlari. O'zbekistondagi tijorat banklarda vujudga keladigan risklar. Respublikabank tizimida bank tavakkalchiligining sug'urtasini rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Kredit axborot byurosi va uning vazifalari.

### **Bank likvidligi va uni ta'minlash omillari**

Bank balansi likvidliliği va to'lov qobiliyati tushunchasi. Tijorat banklari balansi likvidliliği kursatgichlari. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari likvidliliği va to'lov qobiliyatini tartibga solish. Bank majburiyatlarini chegaralash. Bir mijozga beriladigan kreditni chegaralash. Balansdagi yirik kredit summasi va likvidlik normasini o'rnatish. Bank likvidligini boshqarish. chet el va MDX mamlakatlarida tijorat banklari to'lov qobiliyati va likvidligini tartibga solish tajribasi. Bank to'lov qobiliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni boshqarish tajribasi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida banklarning to'lov qobiliyati va likvidligini tartibga solish. O'zbekiston Respublikasining me'yoriy hujjalari va ularn bank likvidligi va to'lov qobiliyatiga ta'siri.

### **Bank foydasi, bank rentabelligi**

Banklarning foydalilik va rentabellik tushunchalari. Bank foydasining asosiy manbalari. Tijorat banklari foydasining tarkibiy tuzilishi va ularning foiz turi bo'yicha turkumlash yullari. Qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalarining

rivojlanishi va ularning bank rentabelligi bilan aloqasi. Tijorat banklarining muomala bo'yicha oladigan foiz daromadlari. Tijorat banklarining foizsiz daromadlari va ularni bank faoliyatiga bo'lgan ta'sirini oshirish yullari. Tijorat banklari foydaliligi va rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni boshqarish.

### **Bank sohasida iqtisodiy matematik modellarni qo'llash**

Bank faoliyatida modellashtirish xususiyatlari. Bank tizimida mavjud modellar tahlili. Sinki modeli. Bankning o'z mablag'larini boshqarish modellari. Tijorat banklari kredit faoliyatida optimallashgan iqtisodiy matematik modellar. Bank jarayonlarining imitatsion modellashtirish xususiyatlari.

**60410600 – Bank ishi yo‘nalishi bo‘yicha ikkinchi va undan keyingi ta’lim  
yo‘nalishiga ikkinchi va undan keyingi ta’limga kiruvchilarning bilim  
darajasini sinash maqsadida tuzilgan savollar**

1. Turli mulk shaklidagi korxonalar joriy mablag’larining aylanish jarayoni. (mulk, kapital, mablag’)
2. Oborot (joriy) kapital istiqbolini belgilash. (reja, muddat, mablag’)
3. Bank tizimi. Bank turlari, ularning tavsifi. (bank, kapital, ruxsat)
4. Bozor sharoitida bank tizimining islohoti va rivojlanishi. (bank, kapital, tizim)
5. Banklar funktsiyasi, majburiyati va huquqi. (bank, funktsiya, mablag’)
6. Mamlakatning iqtisodiy hayotini jonlanishida va qayta taqsimlashda bankning ahamiyati. (bank, kapital, muddat)
7. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining oborot kapitali. (bozor, tovar, iqtisodiyot)
8. Korxona aylanma mablag’lari va ularning tuzilishi. (tizim, kapital, risk)
9. Korxona oborot mablag’laridan samarali foydalanish ko’rsatgichlari va ularni hisoblash yo’llari. (samara, daromad, manba)
10. O’zbekiston Respublikasi sharoitida korxonalarining oborot kapitali va ularni boshqarish yo’llari(korxona, mablag’, risk)
11. Bank tizimi. Bank turlari. (korxona, bank, risk)
12. Bank kredit tashkiloti sifatida (kredit, tashkilot, mablag’, risk)
13. Bank vositachi tashkilot. (korxona, vositachilik, tovar, kredit,)
14. Banklarning operatsiyalari va ularning tuzilishi(operatsiya, daromad, risk)
15. Bank faoliyatiga beriladigan litsenziyalar(markaziy bank, litsenziya, faoliyat)
16. Markaziy bank va uning funktsiyalari(markaziy bank, funktsiya, siyosat)
17. Tijorat banklar tizimi va ularning vazifalari(bank, tizim, vazifa)
18. Banklarning funktsional yunalishi buyicha klassifikatsiyasi (funktsiya, yunalish, tijorat).
19. O’zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi va islohatlari. (tizim, islohot, mablag’)
20. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag’larini aylanishi va kreditlashtirishida bankning funktsiyalari. (bozor, iqtisodiyot, moliyalashtrish)
21. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi (bozor, korxona, tizim)
22. Tijorat banklari kredit mablag’lari va ularning tuzilishi (tijorat, daromad, mablag’)
23. Tijorat banklari kredit resurslaridan mablag’laridan samarali foydalanish ko’rsatgichlari (resurs, muddat, depozit)
24. Tijorat banklari operatsiyalari va ularni ko’paytirish yo’llari(operatsiya, bank, foiz)
25. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uni vakolatlari(korxona, vakolat, bank)

26. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uni boshqarish(boshqaruvi, vosita, me'yor)
27. Bank hisob raqami tushunchasi, ularning turlari. (raqam, operatsiya, xukuk)
28. Bank hisob raqamlarini ochish tartibi. (ariza, tartib, majburiyat)
29. Hisob-kitob operatsiyalarining asosiy va iqtisodiy mazmuni (hisob-kitob, operatsiya, to'lov).
30. Nakd pulsiz hisob-kitoblarning tashkil etish tizimi va printsiplari (tamoyil, pul, to'lov).
31. Banklararo hisob-kitoblar. (vakolat, depozit, munosabat)
32. Korrespondent raqamlar buyicha banklararo hisob-kitoblarni tashkil etish tizimi. (raqam, nostro, loro)
33. To'lov topshiriqnomasi(to'lov, xujjat, muddat)
34. To'lov talabnomasi(talab, aktsept, mablag')
35. CHeklar bilan hisob-kitoblar va ularning asosiy mazmuni (chek, tovar, to'lov)
36. Akkreditiv hisob-kitob tizimi va uni o'tkazish tartibi (kafolat, risk, muddat)
37. Bank amaliyotida yangi hisob-kitoblarini tadbiq qilish muammolari. (plastik kartochka, elektron to'lov tizimi)
38. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimida ochiladigan hisob varaqlari (mijoz, bank, xukuk)
39. Tijorat banklarida amalga oshiriladigan naqt pulsiz hisob-kitob shakllari (tamoyil, shartnoma, shakl)
40. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va banklar faoliyati" to'g'risidagi qonuni (bank tushunchasi, vazifalari, tizimi, majburiyati, huquqi, hususiyatlari)
41. Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan elektron to'lov tizimi (funktsiya, navbat, to'lov)
42. Tijorat banklari va plastik kartochkalar (sharoit, muddat, sugurta)
43. Tijorat banklarining korrespondent munosabatlari va ularni rivojlantirish(litsenziya, aloka, kelishuv)
44. Bank tizimi va mamlakat to'lov tizimi muammolari(tizim, institut, ishtirokchi)
45. Bank passiv operatsiyalari(korxona, depozit, mablag', risk)
46. Banklarning moliya va kredit potentsiali tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va ahamiyati. (potentsial, majburiy zaxira, depozit)
47. Kredit potentsiali manbalarining strukturasi va ularning tavsifi. (tuzilish, manba, qarz)
48. Bank kredit mablag'lari, tuzilishi (kapital, depozit, qarz)
49. Bank kapitali va unga qo'yilgan talablar (kapital, aktiv, risk)
50. Bank depozit operatsiyalari va ularga tavsif (operatsiya,muddat, foiz, risk)
51. Bank nodepozit operatsiyalari (likvidlilik, qarz, operatsiya)
52. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari mablag'lariga qo'yiladigan talablar va iqtisodiy normativlar(normativ, faoliyat, talab)
53. Likvidlilik darajasi buyicha kredit potentsiali va tizimining tavsifi. (likvidlilik, noto'lovlilik, risk)
54. Kredit potentsialidan foydalanishining iqtisodiy chegarasi. (chevara, muddat, me'yor)

55. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimining kredit mablag'lari(korxona, mablag', risk)
56. Tijorat banklari ustav kapitali va ularni boshqarish muammolari (kapital, aktsiya, foyda)
57. Banklarning nodepozit operatsiyalari va ularni boshqari(qarz, operatsiya, moliya)
58. Tijorat banklarining depozit operatsiyalarini ko'paytirish yo'llari(depozit, risk)
59. Bank tizimi va aholi jamg'armalari (tizim, axoli, jamg'arma)
60. Bank mablag'larini ko'paytirish yo'llari (korxona, mablag', muddat, bank)
61. Bank aktiv operatsiyalari va ularni tuzilishi (aktiv, operatsiya, tizim)
62. Bank kredit operatsiyalari va ularni tuzilishi(kredit, mablag', risk)  
65.Zamonaviy kreditlashtirish tizimining asosiy tartibi va kredit turlari. (tizim, xususiyat, tijorat)
63. Kredit portfeli va uni bahosi(kredit, portfel, sifat, risk).
64. Kreditlashtirishni hujjatlashtirish va rasmiylashtirish tartibi (balans, kursatkich, karor)
68. Bank tomonidan kredit shartnomasi shartlarini ko'rib chiqish va tuzish bosqichlari(shartnoma, xukuk va majburiyat)
69. O'zbekiston Respublikasi banklar amalietida beriladigan kredit turlari. (muddat, ta'minot, imtiyoz)
70. O'zbekiston Respublikasi banklar amalietida yangi kredit turlarini tadbik etish muammolari. (mikrokredit, mikrolizing, mikrozaem)
71. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditlash tizimi (kredit, tizim, sub'ekt)
72. Tijorat banklari kredit portfeli va ularni boshqarish muammolari (portfel, muddat, boshqaruv)
73. Banklarning kredit operatsiyalari va ularni boshqarish bosqichlari(operatsiya, sifat, risk)
74. Tijorat banklarining yangi kredit operatsiyalarini ko'paytirish yo'llari(korxona, mablag', risk)
75. Bank tizimi va kredit risklari(tizim, ta'minot, risk)
76. Bank kredit turlarini ko'paytirish yo'llari (depozit, tamoyil, sharoit)
77. Mavsumiy harakterga ega ishlab chiqarish tarmoklari kapitalining aylanish xususiyatlari. (tabiy sharoit, inflyatsiya, risk)
78. Kishlok hujaligiga kredit berish va qoplash tartibi(tartib, sub'ekt, muddat, risk)
79. Kishlok hujaligining alohida tarmoklarining oborot mablag'larini tashkil qilish asoslari va xususiyatlari. (mikrokredit, avans, boshlangich sarmoya)
80. Mikrokreditlash xususiyatlari va tartibi (xajm, manba, foiz)
81. Mavsumiy xarakterga ega bo'lgan mijozlarni kreditlashning yangi usullari(mikrokredit, mikrolizing, mikroqarz)
82. Bank ssudalarini ta'minlash shakllari va turlari. (kafolat, garov, sugurta)
83. Kishlok hujalik tashkilotlariga bank tomonidan kullaniladigan bank tomonidan kullaniladigan imtiyoz va jazolar(muddat, jazo, imtiyoz).
84. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mavsumiy xarakterga ega korxonalarini oborot kapitalini boshqarish yo'llar(korxona, mablag', manba)

85. Tijorat banklari tomonidan mavsumiy korxonalarini kreditlash muammolari(er, vosita, ta'minot)
86. Banklarning mikrokreditlash operatsiyalari va ularni boshqarish(operatsiya, tashkilot, muddat)
87. Tijorat banklarining dexqon-fermer xo'jaliklarini kreditlash yo'llari (dexkon, fermer, shaxsiy xo'jalik)
88. Bank tizimi va kichik biznesni kreditlashdagi risklarni boshqarish (bank, tizim, kichik biznes)
89. Kichik va xususiy tadbirkorlarni kreditlashni zamonaviy xorij tajribasi (tadbirkorlik, mablag', kerdit)
90. Moliyaviy bozor tushunchasi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari. (moliyaviy bozor, funktsiya, operatsiya)
91. Moliyaviy bozor instrumentlari, qimmatbaho qog'oz bozori va uni tashkiliy tuzilishi. (aktsiya, obligatsiya, sertifikat)
92. Bankning qimmatbaho qog'ozlar bilan tijorat va investitsiya operatsiyasi. (tijorat, investitsiya, daromad)
93. Bankning qimmatbaho qog'oz bilan passiv operatsiyasi. (korxona, mablag', kapital)
94. Bankning qimmatbaho qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalari. (investitsiya, vositachilik, kafolat)
95. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarning boshqa turlari(trast, saqlash, boshqaruv)
96. Bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarining daromadligi darajasi(daromad, xarajat, foyda)
97. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini rivojlantirish muammolari(depozitariy, maslaxat, boshqaruv)
98. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari (trast, operatsiya, daromad)
99. Tijorat banklari ustav kapitali va ularni ko'paytirishda qimmatli qog'ozlar bozori(kapital, mablag', manba)
100. Banklarning trast operatsiyalari va ularni boshqarish (risk,trast, daromad)
101. Tijorat banklarining qimmatbaho qog'ozlar bilan passiv operatsiyalarini ko'paytirish yo'llari(aktsiya, obligatsiya, manba)
102. Bank tizimi va aholi jamg'arma sertifikatlari(depozit, sertifikat, nafaka)
103. Bank mablag'larini ko'paytirishda moliya bozori instrumentlari (depozit, aktsiya, obligatsiya)
104. Valyuta munosabatlari tizimida banklarning urni. (korxona, mablag', risk)
105. Turli mulk shaklidagi korxonalar joriy mablag'larining aylanishi jarayoni (mulk, korxona, kapital, mablag', oborot mablag'i)
106. Muddatsiz depozit hisobvaraqlari (depozit, hisobvaraq, mijoz, huquq)
107. Tijorat banklarning kredit operatsiyalari (tijorat banklar, kredit, mijoz)
108. Bank resurslarini tashkil topishi (bank, resurs, depozit, uz mablag')
109. Oborot (joriy) kapital istikbolini belgilash (oborot fondlari, muomila fondlari, kapital mulk, ishlab chiqarish fondlari)

110. Bozor iktisodieti sharoitida bankning roli va rivojlanishi (bank, tizim, markaziy bank, tijorat bank)
111. Jamg'arma depozit hisob varaqlari. (jamg'arma, depozit, to'lov, muddat)
112. Tijorat banklarning uz mablag'lari (tijorat bank, mablag', fond)
113. Banklarning Banklarning balansdan tashkari operatsiyalari (operatsiya, aktiv, passiv, ishonch, maslahat operatsiyalari)
114. Bank tushunchasi, rivojlanish boskichlari (bank pul almashtirish, bankrot, hisob-kitob operatsiyalari, bank boskachlari)
115. Muddatsiz depozit hisobvaraqlarini ochish hujjalari (valyuta, rezident, hujjat, litsenziya, hisobvaraq)
116. Normallashtirilgan oborot mablag'lari (norma, normativ, oborot mablag'lari)
117. Tijorat banki operatsiyalari (tijorat bank, operatsiya, aktiv, kredit, passiv, kapital, vositachilik)
118. Bank mijozining huquqlari (mijoz, huquq, majburiyat, ishonch, shartnoma)
119. Bank muassasa yoki tashkilot sifatida (muassasa, tashkilot, bank, ishlab chiqarish, tovar, pul)
120. Kreditlashtirishda bankning funktsiyalari (kreditlash, funktsiya, kredit olish, kobiliyat, to'lovililik, likvidlilik)
121. Tijorat banklarini jalb kilingan mablag'lari (tijorat banklar, mablag', depozit, muddatli depozit, muddatsiz depozit, jamg'arma)
122. Normalashtirilmaydigan oborot mablag'lari (normativ, norma, oborot kapitala, oborot fonda, mablag'lar)
123. Tijorat banklarini ochish tartibi (tijorat banki hujjalari, litsenziya, nizon, kapital, inson omili, mutahassis)
124. Bank mustakil ishlab chikaruvchi va mahsulot sotuvchi sifatida (mahsulut, tovar, bank, xizmat, tijorat)
125. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va banklar faoliyati" to'g'risidagi qonuni (bank tushunchasi, vazifalari, tizimi, majburiyat, huquqi, hususiyatlari)
126. Oborot mablag'i va bank krediti (oborot mablari qisqa muddatli kredit, oborot mablag'i manbasi)
127. Markaziy bank va tijorat banki urtasidagi uzaro munosibat (emissiya, hisob-kitob markaziy, tekshiruv funktsiyasi, pul-kredit siesati, litsenziyalash)
128. Bank vositachi korxona sifatida (vositachilik, pullik to'lovlar, mukofot, nakd pullik va nakd pulsiz to'lovlar)
129. Banklarning aktiv operatsiyalari (aktiv, operatsiya, gazna operatsiya, kreditlar, valyuta operatsiyasi ishonch va investitsiya operatsiyasi)
130. Ssuda hisobvaraqlari (ssuda, ishonch, qarz, printsip, garov, hisob varaq)
131. Debitor qarzlar va ularni turkumlash (debitor qarzlar, korxona qarzlar, to'lov va uning muddati, tovar va xizmatlar to'ovi)
132. O'zbekiston Respublikasi kreditlash tizimi (kredit, tizim, printsip, qonun, kreditni ob'ekti sub'ekti va taminlanishi)
133. Oborot mablag'larini aylanish koefitsenti va ularning hisoblash usuli (koefitsentlar, oborot mablag'larining aylanishi koefitsenti)
134. Xususiy banklar va ularga berilgan imtiyozlar (banklar, imtiyozlar, solik yengilliklari, litsenziya, operatsiya, kapital)

135. Oliy o'quv yurtlarida pul-kontrakt asosida ta'lif oluvchilarga ta'lif kreditni berish to'g'risida. (kredit, tizim, ob'ekt, ishonch, tashkilot)
136. Jamg'arma va muddatli depozit hisob varahlari urtasidagi farqlar (jamg'arma, omonat, depozit, hisob varaq, va ularning uzaro farqi)
137. Jamg'arma va muddatli depozit hisob varaq o'rtaisdagi o'xshashliklar (banklarning depozit siesati, pul mablag'lari aylanishi, mukofot, jamg'arma siesati)
138. Kreditor qarzlar va ularni turkumlash (kreditor qarzlar, hisob-kitoblar, mablag'larni chetga jalganligi, aborot mablag'lari manbasi)
139. Kredit operatsiyalar va ularning turlari (kredit, operatsiya, ipoteka, lizing, kontokorent, overdraft, konsortsium)
140. Banklarning kimmatli kogozlar bilan operatsiyalari (banklarning aktiv operatsiyalari, ishonch operatsiyalari, kafolot operatsiyalari, monitoring)
141. Mavsumiy xarakterdagi korxonalarni kreditlash xususiyachtlari (aborot mablag'i, foyda boshqa manbalar)
142. Hisobvaraqnini yopish shartlari (yopish sharti, likvidatsiya, bankrot, sud organlari karori)
143. Banklarning boshqa moliya-kredit institutlaridan farqi (moliya, kredit, moliya-kredit tizimi institutlari, to'lov tizimi, moliya bozori)
144. Fermer xo'jaliklarining kreditlash jarayoni (fermer hujaligi, hususiyatlari, depozit, kreditlash jarayoni)
145. Ishlab chiqarish fondlari va bank krediti (ishlab chiqarish fondi, qisqa muddatli kredit, muddat, mablag')
146. Qisqa muddatli kreditlashda mijozni kredit olish kobiliyati taxlili (kredit turlari, korxonalarining kredit olish kobiliyati, qoplash koeffitsenti, likvidlilik)
147. Bank kredit tamoyillari (bank krediti, kredit tamoyillari, kredit shakllari, kredit olish shartlari)
148. Muddatsiz hisobvaraqlaridan operatsiyalarni o'tkazish tartibi (muddatsiz depozit hisobvarag'i, operatsiyalar, huquq va majburiyatlar, mukofot puli, hisob-kitoblar)

**60410600 – Bank ishi bo‘yicha ikkinchi va undan keyingi ta’limga kiruvchi talabgorlar uchun mutaxassislik fanlari bo‘yicha davogarlar bilimini baholash MEZONLARI:**

60410600 – Bank ishi bo‘yicha ikkinchi va undan keyingi ta’limga kirish sinovlari abiturientlar uchun test shaklida o‘tkaziladi.

Abiturientlarga 50 tadan test savollari beriladi. Har bir to’gri javobga 2 balldan beriladi, eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi. Test o’tkazish uchun 120 minut vaqt beriladi, test abiturient tomonidan mustaqil ravishda bajarilishi shart.

Test jarayonida abiturientlarning auditoriyadan chiqishi, bir – biri bilan gaplashishi, boshqa abiturientlarga o‘z test varaqalarini berishi, o‘zi bilan darsliklar, o‘quv – uslubiy qo‘llanmalar, lug‘atlar, ma’lumotnomalar va boshqa adabiyotlar normative – huquqiy hujjatlar, konspektlar, elektron va qog‘oz shpargalkalar, kalkulyatorlar, aloqa vositalari (shu jumladan uyali aloqa vositasi), audio – foto va video – yozuv qurilmalari va h. k. larni olib kirishi va ulardan foydalanishi taqiqlanadi.

Test uchun ajratilgan vaqt tugaganidan so‘ng, abiturient o‘z test varaqasini auditoriya rahbariga topshirishga majburdir. Auditoriya rahbari test imtihonda qatnashgan talabalar ro‘yxati hamda auditoriyadan chetlashtirish to‘g‘risidagi dalolatnomalarni mas’ul kotibga topshiradi.

60410600 – Bank ishi yo‘nalishi bo‘yicha ikkinchi va undan keyingi ta’limga kiruvchi talabgorlar bilimini aniqlash maqsadida tuzilgan baholash mezoni Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasining 2025 yil 30 iyundagi 12-sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, ma’qullangan.

## **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Casu, Barbara Girardone, Claudia Molyneux, Philip. Introduction to banking, 3nd edition, Harlow: Pearson. 2022.
2. Bruna Ingrao, Claudio Sardoni. Banks and finance in modern macroeconomics. Edward Elgar Publishing. 2020. 288 pages.
3. Абдуллаева Ш.З., Азизов У.Ў. Банк иши: Дарслик. –Т.: «Иқтисод-Молия», 2019. — 540 б.
4. Лаврушин О.И. под ред. и др. Банковское дело: учебник /— Москва : КноРус, 2023. — 632 с.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

5. Jesus Huerta de Soto. Money, bank credit, and economic cycles. Union Editorial. 2020. 881 pages.
6. Абдуллаева Ш.З. “Банк иши”. Т.: «Иқтисод-Молия » нашриёти, 2017. — 768 б.
7. Азизов У.Ў ва бошқалар. Банк иши. Т.: «Фан ва технология» нашриёти, 2016. — 640 б.
8. Лаврушин О.И. под ред. и др. Банк и банковские операции: учебник /— Москва : КноРус, 2019. — 268 с.
9. Бобакулов Т.И., Абдуллаев У.А. Исаков Ж.Я. “Монетар сиёсат” Дарслик. —
10. «Иқтисод-Молия», 2019. 274 б. Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. Дарслик. Т.: «Иқтисод-Молия», 2017. -344 б.
11. Жукова. Е.Ф., Эриашвили Н.Д. под ред. И др. Банковское дело: Учебник /. - М.: Юнити, 2016. - 687 с.
12. Расулов Т.С. “Валюта бозоридаги операциялар: назария ва амалиёт”. Т.: “Молия”, 2011.- 306 б.

### **Интернет ресурслари**

13. <http://www.cbu.uz>
14. <http://www.gov.uz>
15. <http://www.lex.uz>
16. <http://www.imv.uz>
17. <http://www.stat.uz>